

RESPUBLIKA HUDUDLARI VA TARMOQLARI EKSPORT  
SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI BO‘YICHA DOIMIIY  
FAOLIYAT YURITUVCHI RESPUBLIKA KOMISSIYASINING  
QARORI  
(Ko‘chirma)

**MAHSULOTLARNI EKSPORT QILISHDA AVTOMOBIL, HAVO VA TEMIR YO‘L  
TRANSPORTIDA TASHISH XARAJATLARINI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT BUDJETI MABLAG‘LARI HISOBIDAN QISMAN KOMPENSATSIYA  
QILISHGA SUBSIDİYALAR TAQDIM ETISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI  
TASDIQLASH HAQIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan  
o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3257]**

Kun tartibidagi masala muhokama qilindi va muhokama yakunlariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son qarorida berilgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta‘minlash maqsadida Respublika komissiyasi qaror qildi:

1. Mahsulotlarni eksport qilishda avtomobil, havo va temir yo‘l transportida tashish xarajatlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qisman kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizom **ilovada** muvofiq tasdiqlansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — investitsiyalar va tashqi savdo vaziri,  
Respublika komissiyasi raisi S. UMURZAKOV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 25-may,  
24/1-1111-son

Respublika hududlari va tarmoqlari eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi respublika komissiyasining 2020-yil 25-maydagi 24/1-1111-son **qaroriga** ILOVA

**Mahsulotlarni eksport qilishda avtomobil, havo va temir yo‘l transportida tashish  
xarajatlarini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qisman  
kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-maydagi PQ-4337-son “Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq eksport qiluvchi mahalliy tadbirkorlik subyektlariga (ularning vakolatli vakillariga) mahsulotlarni eksport qilishda avtomobil, temir yo‘l va havo transportida tashish bo‘yicha transport xarajatlarining 50 foizigacha qismini Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan subsidiyalar hisobidan kompensatsiya qilib berish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**vakolatli organ** — O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi;

**vositachilik shartnomasi** — bir taraf (vositachi) ikkinchi taraf (komitent)ning topshirig‘i bo‘yicha o‘z nomidan, biroq komitent hisobidan eksport shartnomalari tuzish orqali komitent mahsulotlarini ma‘lum bir haq evaziga eksport qilish bo‘yicha tuzilgan shartnoma;

**kompensatsiya** — mahsulotlarni eksport qilishda transport xarajatlarining 50 foizgacha qismini qoplab berish uchun ushbu Nizomda belgilangan tartibda hisoblangan, vakolatli organ tomonidan eksport qiluvchiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan subsidiyalar hisobidan to‘lab beriladigan mablag‘;

**mahsulotlar** — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4707-son qarori bilan tasdiqlangan Eksport qilishda avtomobil, temir yo‘l va havo transportida tashish xarajatlarining bir qismi kompensatsiya qilinadigan mahsulotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan mahsulotlar. Bunda, mazkur ro‘yxatga Respublika hududlari va tarmoqlari eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi respublika komissiyasi qarorlari bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib borilishi mumkin;

**mahsulotlarning kelib chiqish sertifikatini** — mahsulotlar O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjat;

**subsidiya** — mahsulotlarni eksport qilishda transport xarajatlarining 50 foizigacha qismini eksport qiluvchiga kompensatsiya qilib berish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan vakolatli organga ajratiladigan mablag‘.

**transport-ekspeditorlik kompaniyasi** — eksport qiluvchining mahsulotlarini avtomobil, temir yo‘l yoki havo transporti orqali eksport qilishda transport-ekspeditorlik xizmatlari ko‘rsatuvchi xo‘jalik subyekti;

**transport kompaniyasi** — eksport qiluvchining mahsulotlarini avtomobil, temir yo‘l yoki havo transportida eksportga tashish xizmatlarini ko‘rsatuvchi xo‘jalik subyekti;

**transport xarajati** — eksport qiluvchi tomonidan mahsulotlarni avtomobil, temir yo‘l va havo transportida (aralash yoki alohida transportda) eksportga tashish bilan bog‘liq xizmatlar uchun tegishli shartnoma (invoys)larga muvofiq transport kompaniyasi va (yoki) transport-ekspeditorlik kompaniyasiga to‘langan mablag‘ yoki eksport qiluvchining o‘z balansidagi avtomobil transportida mahsulotlarni eksportga yetkazib berish bo‘yicha amalga oshirgan moliyaviy xarajati, bundan dengiz transportida tashish xarajatlari mustasno;

**eksport qiluvchi** — O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatiga olingan, mahsulotlarni xorijiy mamlakatlardagi xaridorlarga eksport shartnomalari (invoys)ga muvofiq sotuvchi, shuningdek, eksport va (yoki) vositachilik shartnomalariga binoan yuk jo‘natuvchi tadbirkorlik subyekti, shu jumladan, uning vakolatli vakili;

## **2-bob. Kompensatsiya taqdim etish uchun asosiy shartlar**

3. Vakolatli organ tomonidan eksport qiluvchiga kompensatsiya taqdim etilishi uchun: eksport qiluvchi O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatiga olingan;

mahsulotlar O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan;

O‘zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh bo‘lmagan (Afg‘oniston Islom Respublikasidan tashqari) davlatlarga eksport qilingan mahsulotlar, bundan tuxum hamda parranda go‘shiti va mahsulotlari (TIF TN kodi 0407210000, 0207) mustasno;

mahsulotlar belgilangan tartibda eksport rejimiga joylashtirilgan;

eksport shartnomasi (vositachilik shartnomasi, invoys)da Inkoterms shartlari asosida mahsulotlarni yetkazib berish bo‘yicha transport harajatlari eksport qiluvchi zimmasiga yuklangan va ushbu xarajatlar uchun to‘lovlar eksport qiluvchi tomonidan amalga oshirilgan bo‘lishi kerak.

## **3-bob. Kompensatsiya qilib berish uchun talab etiladigan hujjatlar va ularni ko‘rib chiqish tartibi**

4. Vakolatli organ tomonidan transport xarajatlarining 50 foizgacha qismiga kompensatsiya qilib berish bo‘yicha eksport qiluvchilarning arizalarini ko‘rib chiqish mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Transport xarajatlari bo‘yicha kompensatsiya olish uchun eksport qiluvchi tomonidan vakolatli organga mazkur Nizomning 2-ilovasida keltirilgan shaklda ariza beriladi. Bunda arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

eksport shartnomasi (invoys) va (yoki) vositachilik shartnomasi nusxasi;

bojxona yuk deklaratsiyasi nusxasi;

mahsulotlarni eksport qilish yukxatlari nusxasi;  
mahsulotlarning kelib chiqish sertifikatini nusxasi;

eksport qiluvchi bilan transport kompaniyasi va (yoki) transport-ekspeditorlik kompaniyasi o'rtasida tuzilgan mahsulotlarni avtomobil, temir yo'l va (yoki) havo transportida tashish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnoma va u bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi. Eksport qiluvchi mahsulotlarni o'z balansidagi avtomobil transportida eksportga tashiganda transport xarajatlarini tasdiqlovchi hisob-kitoblar tegishli hujjatlar nusxalari bilan taqdim etiladi;

mahsulotlar avtomobil va (yoki) temir yo'l transportida tashilganda mahsulotlar eksportga ortilgan joydan eksport shartnomasida ko'rsatilgan yetkazib berish joyigacha bo'lgan avtomobil yo'li va (yoki) temir yo'l masofasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

6. Eksport qiluvchidan ushbu Nizomning **5-bandida** ko'rsatilgan hujjatlardan boshqa hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.

7. Eksport qiluvchi tomonidan kompensatsiya olish uchun ariza va tegishli hujjatlar vakolatli organga bevosita, pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda, shu jumladan, Tashqi iqtisodiy ma'lumotlar portali orqali taqdim etiladi.

Bunda, eksport qiluvchilar 2020-yilning 1-apreldan boshlab avtomobil, temir yo'l va havo transportida eksport qilgan mahsulotlari bo'yicha amalga oshirgan transport xarajatlarining 50 foizigacha qismiga kompensatsiya olish uchun vakolatli organga arizalar taqdim etishga haqli.

Arizada eksport qiluvchining elektron manzili ko'rsatilganligi uning arizasi bo'yicha qabul qilingan qaror haqida axborot tizimi orqali elektron shaklda xabarnoma olishga bo'lgan roziligi hisoblanadi.

8. Kompensatsiya olish uchun ariza vakolatli organga eksport qiluvchi tomonidan bevosita taqdim etilayotganda ushbu Nizomning **5-bandida** ko'rsatilgan hujjatlar to'liq bo'lmagan holatlarda ariza ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

9. Kompensatsiya olish uchun ariza vakolatli organga eksport qiluvchi tomonidan pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda, shu jumladan, Tashqi iqtisodiy ma'lumotlar portali orqali taqdim etilganda, ushbu Nizomning **5-bandida** qayd etilgan hujjatlar to'liq taqdim etilmagan bo'lsa, vakolatli organ uch ish kuni mobaynida eksport qiluvchiga hujjatlarni tegishli javob xati bilan yozma yoki elektron shaklda qaytaradi.

10. Ushbu Nizomning **5-bandida** qayd etilgan hujjatlar to'liq taqdim etilgan arizalar vakolatli organ tomonidan yetti ish kuni davomida ko'rib chiqiladi.

11. Vakolatli organ eksport qiluvchi va u tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ushbu Nizomning **3-bandidagi** shartlarga muvofiqligi nuqtai nazaridan o'rganib chiqadi.

12. Vakolatli organ eksport qiluvchi va u tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni axborot tizimlari, shu jumladan, Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi orqali va tegishli organlarning Internet jahon axborot tarmog'idagi ma'lumotlar bazalari yordamida hamda so'rovlarni yuborib, javoblar olish orqali o'rganib chiqishi mumkin.

13. Eksport qiluvchi arizasi bo'yicha kompensatsiya berish yuzasidan qaror (xulosa) vakolatli organ tomonidan qabul qilinadi. Bunda eksport qiluvchining arizasini ko'rib chiqish uchun to'lov undirilmaydi.

#### **4-bob. Kompensatsiya berishni rad etishning asoslari**

14. Eksport qiluvchiga kompensatsiya berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

eksport qiluvchi va u tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning ushbu Nizomning **3-bandida** belgilangan shartlarga yoki ularning biriga nomuvofiqligi;

eksport qiluvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ushbu Nizomda belgilangan tartibda o'rganishlar natijasida ishonchsiz va noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi yoki ma'lumotlarni buzib ko'rsatish holatlari aniqlangan taqdirda.

15. Ushbu Nizomning **14-bandida** nazarda tutilmagan asoslarga ko'ra eksport qiluvchiga kompensatsiya berishning rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

16. Eksport qiluvchi kompensatsiya berilishini rad etish to'g'risida qaror (xulosa) olganda rad etish asoslarini bartaraf etgan holda kompensatsiya olish uchun vakolatli organga ariza bilan qayta murojaat qilishga haqli.

17. Eksport qiluvchi kompensatsiya berilishini rad etish to'g'risidagi qarordan (xulosadan) norozi bo'lgan taqdirda, shuningdek, vakolatli organning mansabdor shaxslari harakati (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda yuqori turuvchi tashkilotga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

### **5-bob. Kompensatsiya miqdorini aniqlash va to'lovni amalga oshirish tartibi**

18. Kompensatsiya miqdori mazkur Nizomning 3 — 5-ilovalarida keltirilgan subsidiyalarning qat'iy belgilangan miqdorlari jadvaliga muvofiq mahsulot turi, hajmi va eksport yo'nalishidan kelib chiqib hisoblanadi.

Mazkur Nizomning 3 — 5-ilovalariga muvofiq hisoblangan kompensatsiya miqdori eksport qiluvchi amalga oshirgan haqiqiy transport xarajatlarining 50 foizidan oshib ketgan holatlarda kompensatsiya miqdori eksport qiluvchi transport xarajatlarining 50 foiziga teng bo'ladi.

Biroq, yuqoridagi tartibda hisoblangan kompensatsiya miqdori mahsulotlar eksport qiymatining (transport xarajatisiz):

avtomobil transportida tashishda 5 foizidan;

temir yo'l transportida tashishda 7 foizidan;

havo transportida tashishda TIF TN kodi 07,08, 0904 va 1202 bilan boshlanuvchi mevasabzavot mahsulotlariga 12 foizidan, boshqa mahsulotlarga 6 foizidan ortib ketgan holatlarda kompensatsiya miqdori mahsulot eksport qiymatiga (transport xarajatisiz) nisbatan ushbu belgilangan foizlardan kelib chiqib hisoblanadi.

*Misol uchun: Uzum mahsuloti hajmi 18500 kg, eksport qiymati — 157 250 000 so'm (8500so'm/kg), import qiluvchi davlat — Rossiya Federatsiyasi, transport xarajati — 25 000 000 so'm uning 50 foizi 12 500 000 so'm, qat'iy belgilangan subsidiya miqdori 480 so'm/kg Kompensatsiya miqdori: qat'iy belgilangan subsidiya miqdori bo'yicha —  $18500 \cdot 480 = 8\,880\,000$  so'm, mahsulot eksport qiymatiga nisbatan (5 foizi) —  $7\,862\,500$  so'm. Dyemak, to'lab beriladigan kompensatsiya miqdori  $7\,862\,500$  so'mga teng.*

19. Chet el valyutasida to'lov amalga oshirilgan transport xarajatlari uchun kompensatsiya milliy valyutada amalga oshiriladi. Chet el valyutasida to'lov amalga oshirilgan transport xarajatining milliy valyutadagi qiymati eksport qiluvchi tomonidan transport xarajatlari uchun to'lov amalga oshirilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tegishli valyuta kursiga asosan hisoblanadi.

20. Eksport qiluvchilar transport xarajatlarining 50 foizigacha qismini kompensatsiya qilish vakolatli organ tomonidan, uning buyurtmanomalariga muvofiq 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan, 2021-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida ko'zda tutilgan subsidiya mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

21. Vakolatli organ har hafta yakuni bo'yicha keyingi haftaning birinchi ish kunida eksport qiluvchilar tomonidan taqdim etilgan arizalarni ko'rib chiqish yakunlariga muvofiq eksport qiluvchilarga kompensatsiyalar berish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'laridan subsidiyalar ajratish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga buyurtmanoma taqdim etadi.

22. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakolatli organ tomonidan taqdim etilgan buyurtmanomani olgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida buyurtmanomada ko'rsatilgan subsidiya mablag'larini vakolatli organning maxsus shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazib beradi.

Bunda, moliya yili yakuni bo'yicha ushbu shaxsiy g'azna hisobvarag'ida foydalanilmay qolgan budjet mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qaytariladi.

23. Vakolatli organ maxsus g'azna hisobvarag'iga tushgan subsidiya mablag'larini ikki ish kuni mobaynida vakolatli organ tomonidan kompensatsiya berilishi belgilangan tegishli eksport qiluvchilarning tijorat banklaridagi hisob raqamlariga o'tkazib beradi.

24. Mahsulotlar konsignatsiya shartnomalari asosida eksportga chiqarilganda mazkur Nizomga muvofiq eksport qiluvchiga taqdim etilgan kompensatsiya to'lovlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan qarzdorlik sifatida e'tirof etiladi agar:

mahsulotlar uchun to'lovlar shartnoma va qonunchilikda belgilangan muddatlarda eksport qiluvchiga kelib tushmasa;

mahsulotlar sotilmasdan O'zbekiston Respublikasiga qaytarib kelinsa.

Bunda, eksport qiluvchi shunday holat yuz bergandan boshlab bir oy muddatda tegishli kompensatsiya to'lovlari vakolatli organga qaytarishi talab etiladi. Ushbu muddatda qaytarilmagan kompensatsiya to'lovi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda unduruvga qaratiladi.

25. Kompensatsiya berilgan eksport qiluvchilarning reyestri vakolatli organ tomonidan ushbu Nizomning [6-ilovasiga](#) muvofiq shaklda yuritiladi.

### **6-bob. Yakuniy qoidalar**

26. Vakolatli organ tomonidan eksport qiluvchiga mahsulotlarni eksport qilishdagi transport xarajatlarini kompensatsiya qilish uchun subsidiya mablag'lari ajratilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

27. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Mahsulotni eksport qilishda tashish xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kompensatsiya qilish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)

1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksport qiluvchining arizalarini ko'rib chiqish**

SXEMASI

Боскичлар	Масъул ижрочилар	Тадбирлар
1-боскич	Экспорт килувчи	<p>Ариза ва қуйидаги ҳужжатларни тайёрлаш ҳамда ваколат бевосита, почта алоқаси воситалари орқали ёки электрон шаклда, шунингдек Ташқи иқтисодий маълумотлар портали орқали топшириш:</p> <p>экспорт шартномаси (инвойс) ва (ёки) воситачилик шартномаси ва божхона юк декларацияси нусхаси.</p> <p>транспорт компанияси ва (ёки) транспорт-экспедиторлик компанияси билан тузилган шартнома ва у бўйича амалга оширилган тўловларни тасдиқловчи ҳужжатлар нусхаси. Экспорт килувчи маҳсулотларни ўз қўли билан автомобиль транспортида экспортга ташиганда транспорт харajatларини тасдиқловчи ҳисоб-китоблар тегишли ҳужжатлар нусхалари билан таъмин этилади.</p> <p>маҳсулотларни экспортга ташиш юкхатлари нусхаси.</p> <p>маҳсулотлар автомобиль ва (ёки) темир йўл транспортида ташиш маҳсулотлар экспортга ортилган жойдан экспорт шартномасида шартномага ўтказиб бериш жойига бўлган автомобиль йўли ва (ёки) темир йўл тўғрисидаги маълумотлар (автомобилда ташишда юкхати ҳужжати бўлганда 27 — 29 бандларидаги маълумотлар, темир йўл транспортида ташишда ҳужжатнинг 22-бандидаги маълумотлар асосида);</p> <p>маҳсулотларнинг келиб чиқиш сертификати нусхаси.</p>
2-боскич	Экспортни рағбатлантириш агентлиги	<p>Такдим этилган ҳужжатларни кўриб чиқиш ва компенсация тўловини бўйича қарор (хулоса) қабул қилиш;</p> <p>ҳужжатлар тўлиқ такдим этилмаганда, уларни экспорт килувчига қайтариш билан ёзма ёки электрон шаклда қайтариш;</p> <p>тўлиқ такдим этилган ҳужжатлар бўйича тегишли қарор (хулоса) қабул қилиш ва экспорт килувчини хабардор қилиш.</p>
3-боскич	Экспортни рағбатлантириш агентлиги	<p>Субсидия ажратиш бўйича буюртманома тайёрлаш ва Республикаси Молия вазирлигига такдим этиш.</p>
4-боскич	Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги	<p>Экспортни рағбатлантириш агентлигининг буюртманомасини Давлат бюджетидан субсидия ажратиш.</p>
5-боскич	Экспортни рағбатлантириш агентлиги	<p>Компенсация тўловини экспорт килувчининг аризасида кўрсатилган ҳисоб рақамига ўтказиб бериш.</p>

Маҳсулотни экспорт қилишда ташвиш харajatларини О‘збекистон Республикаси Давлат бюджетидан маблағлари ҳисобидан компенсация қилиш тартиби то‘ғ‘рисидаги [nizomga](#)  
2-ILOVA

huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligiga  
\_\_\_\_\_ dan  
(eksport qiluvchining nomi)

**Ariza**

\_\_\_\_\_ tomonidan \_\_\_\_\_ avtomobil/temir yo'l/havo  
(eksport qiluvchining nomi) (mamlakat nomi)  
transportida eksport qilingan, umumiy qiymati AQSh dollariga teng, TIF TN kodi \_\_\_\_\_ bo'lgan  
\_\_\_\_\_ mahsulot(lar)ini eksport qilish uchun  
(mahsulotning nomi)

sarflangan \_\_\_\_\_ co'm miqdoridagi transporti xarajatining 50 foizigacha qismini O'zbekiston  
Respublikasi Davlat budjeti hisobidan kompensatsiya qilish masalasini ko'rib chiqishingizni va tegishli kompensatsiya  
to'lovini \_\_\_\_\_ tijorat bankining \_\_\_\_\_  
(bank nomi) (hududning nomi)

filialidagi \_\_\_\_\_ hisob raqamga o'tkazib berishingizni so'rayman.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinmoqda:

1. Eksport shartnomasi (invoys) va (yoki) vositachilik shartnomasi nusxasi.
2. Bojxona yuk deklaratsiyasi nusxasi.
3. Transport kompaniyasi va (yoki) transport-ekspeditorlik kompaniyasi bilan tuzilgan shartnoma va u bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi. Eksport qiluvchi mahsulotlarni o'z balansidagi avtomobil transportida eksportga tashiganda transport xarajatlarini tasdiqlovchi hisob-kitoblar tegishli hujjatlar nusxalari bilan taqdim etiladi.
4. Mahsulotlar avtomobil va (yoki) temir yo'l transportida tashilganda mahsulotlar eksportga orilgan joydan eksport shartnomasida ko'rsatilgan yetkazib berish joyigacha bo'lgan avtomobil yo'li va (yoki) temir yo'l masofasi to'g'risidagi ma'lumotlar;
5. Mahsulotlarni eksportga tashish yukxatlari nusxasi.
6. Mahsulotlarning kelib chiqish sertifikatini nusxasi.

\_\_\_\_\_ rahbari

(eksport qiluvchi)

\_\_\_\_\_ (F.I.O.)

Bog'lanish uchun telefon: +998 (\_\_\_\_) \_\_\_\_\_

Mahsulotni eksport qilishda tashish xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kompensatsiya qilish tartibi to'g'risidagi **nizomga**  
**3-ILOVA**

**Mahsulotlarni eksportga tashish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilishga taqdim etiladigan subsidiyalarning qat'iy miqdorlari (avtomobil transportida tashilganda)**

T/r	Mahsulot nomi	Mahsulot TIF TN kodi	Afg'oniston	Rossiya Federatsiyasi* (3500 km gacha bo'lgan hududlariga)	Belarus, Ukraina, Moldova	Kavkaz davlatlari (Ozarbayjon, Armaniston, Gruzziya)	Osiyo qit'asi		Yevrop qit'asi
							Yaqin Sharq va boshqa Osiyo davlatlari	Osiyo-Tinch okeani davlatlari	
<b>I.</b>	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>								
<b>I.1.</b>	<b>Boshqariladigan temperatura talab etiladigan oziq-ovqat mahsulotlari</b>								
1.	Tuxum, parranda go'shti va mahsulotlari	0407210000, 0207	260	480	700	540	540	1300	760

2.	Pomidorlar	0702000001 — 0702000009	260	480	700	540	540	1300	760
3.	Sarimsoq	0703200000	260	480	700	540	540	1300	760
4.	Gulkaram	0704100000	260	480	700	540	540	1300	760
5.	Salatlar (latuk, aysberg, radicho, oaklif, lollo-rossa va boshqalar]	0705	260	480	700	540	540	1300	760
6.	Bodringlar	0707000501 — 0707000509	260	480	700	540	540	1300	760
7.	Ko'katlar	0709400000, 0709700000, 0709991000, 0709999000	260	480	700	540	540	1300	760
8.	Shirin qalampir ho'l yoki muzlatilgan	0709601000, 0710805100	260	480	700	540	540	1300	760
9.	Achchiq qalampir	0709609900	260	480	700	540	540	1300	760
10.	Muzlatilgan sabzavotlar	0710809500	260	480	700	540	540	1300	760
11.	Limon	0805501000	260	480	700	540	540	1300	760
12.	Uzum	0806101000, 0806109000	260	480	700	540	540	1300	760
13.	Tarvuz	0807110000	260	480	700	540	540	1300	760
14.	Qovun	0807190000	260	480	700	540	540	1300	760
15.	Olma	0808108001- 0808108004	260	480	700	540	540	1300	760
16.	Nok	0808309000	260	480	700	540	540	1300	760
17.	O'rik	0809100000	260	480	700	540	540	1300	760
18.	Gilos	0809290000	260	480	700	540	540	1300	760
19.	Nektarin	0809301000	260	480	700	540	540	1300	760
20.	Shaftoli	0809309000	260	480	700	540	540	1300	760
21.	Olxo'ri	0809400500	260	480	700	540	540	1300	760
22.	Olcha	0809210000	260	480	700	540	540	1300	760
23.	Xurmo	0810700000	260	480	700	540	540	1300	760
24.	Anor	0810907500	260	480	700	540	540	1300	760
25.	Muzlatilgan yoki konservalangan mevalar	0811, 0811907500, 0811908000, 0811909500, 0812902500	260	480	700	540	540	1300	760
I.2.	<b>Boshqariladigan temperaturada talab etilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari</b>								
26.	Kovul	0711907000	225	360	450	495	495	1240	740
27.	Qurtilgan sabzavotlar	0712909000	225	360	450	495	495	1240	740



28.	Yong' oq	0802310000, 0802320000	225	360	450	495	495	1240	740
29.	Bodom	0802111000, 0802119000, 0802121000, 0802129000	225	360	450	495	495	1240	740
30.	Mayiz	0806203000, 0806209000	225	360	450	495	495	1240	740
31.	Qurtilgan mevalar	0813100000, 0813200000, 0813300000, 0813401000, 0813403000, 0813409500, 0813501500, 0813501900, 0813509100, 0813509900	225	360	450	495	495	1240	740
32.	Qurtilgan, maydalangan va yanchilgan qalampir	0904110000, 0904120000, 0904211000, 0904219000, 0904220000	225	360	450	495	495	1240	740
33.	Yeryong' oq	1202, 1202410000, 1202420000	225	360	450	495	495	1240	740
	Sanoat mahsulotlari								
34.	Tabiiy uzum vinolari	2204101100, 2204219700, 2204219800, 2204299501, 2204299508, 2204299601, 2204299701, 2204299708, 2204299709, 2204299801, 2204299809, 2204309800	225	360	450	495	495	1240	740
35.	Konyak distillyati	2208208900	225	360	450	495	495	1240	740
36.	Tarkibida antibiotiklar bo'lgan penitsillinlar, dori vositalari	3004100001, 3004100006, 3004200001, 3004200002	225	360	450	495	495	1240	740
37.	Gulqog'ozlar va shunga o'xshash devor qoplamalari	4814200000	225	360	450	495	495	1240	740

38.	Gazlama	5208 — 5212	225	360	450	495	495	1240	740
39.	To'qima gilamlar	5702429000	225	360	450	495	495	1240	740
40.	Linoleum	5904100000	225	360	450	495	495	1240	740
41.	Trikotaj mato	60	225	360	450	495	495	1240	740
42.	Tikuv-trikotaj mahsulotlari	61 — 63	225	540	675	742	742	1860	1110
43.	Suv o'tkazmaydigan poyabzal	6401921000, 6401929000, 6401990000	225	360	450	495	495	1240	740
44.	Poyabzal	6403200000, 6403400000, 6403911600, 6403999100, 6403999600, 6404199000, 6404209000, 6405100000, 6405209100, 6405209900, 6405901000	225	360	450	495	495	1240	740
45.	Shlak paxta, mineral paxta va boshqalar	6806100008, 6806209000, 6806900000	225	360	450	495	495	1240	740
46.	Tosh yotqizish uchun plitalar	6907219001, 6907229003, 6907229009, 6907239003	225	360	450	495	495	1240	740
47.	Keramikadan yasalgan pardozlash buyumlari	6907409003, 6907409009	225	360	450	495	495	1240	740
48.	Oshxona idishlari va boshqalar	6912001000, 6912002100, 6912002300, 6912002500, 6912002900, 6912005000, 6912008100, 6912008900, 6912009000	225	360	450	495	495	1240	740
49.	Shisha tola	7019199009, 7019310000, 7019390009, 7019510000, 7019590000, 7019900009	225	360	450	495	495	1240	740
50.	Shisha idishlar	7010901000, 7010904100, 7010904300,	225	360	450	495	495	1240	740

		7010904500, 7010905300, 7010907100, 7010907900							
51.	Qalpoqlar yoki ventilatsiyali shkaflar	8414600000	225	360	450	495	495	1240	740
52.	Kir yuvish mashinalari	8450120000	225	360	450	495	495	1240	740
53.	Akkumulyatorlar	8507102003	225	360	450	495	495	1240	740
54.	Transformatorlar	8504210000, 8504221000, 8504229000, 8504230000, 8504312900, 8504318009, 8504330000, 8504340000, 8504403009, 8504405500, 8504408200, 8504408800, 8504409000, 8504509500, 8504901800, 8504909900	225	360	450	495	495	1240	740
55.	Chang yutgichlar	8508190001	225	360	450	495	495	1240	740
56.	Taqsimlagichlar, o't oldirish g'altaklari	8511400008	225	360	450	495	495	1240	740
57.	Elektr uskunalar	8511500009	225	360	450	495	495	1240	740
58.	Elektr yoritish va signalizatsiya uskunolari	8512200001, 8512200009	225	360	450	495	495	1240	740
59.	Pechlar va kameralar	8514900000	225	360	450	495	495	1240	740
60.	Elektr suv isitgichlar, mikroto'qinli pechlar, pechlar, elektr plitalar va h.k.	8516108000, 8516500000, 8516601010, 8516601090, 8516607000, 8516609000	225	360	450	495	495	1240	740
61.	Ovozni qabul qilish va uzatish uchun apparatura, televizion aloqani qabul qilish uchun apparatura	8517620009, 8528722001	225	360	450	495	495	1240	740

62.	Kommutatsiya uchun elektr apparatura	8535900000	225	360	450	495	495	1240	740
63.	Pultlar, panellar, konsollar va boshqalar	8537109900, 8537209100	225	360	450	495	495	1240	740
64.	Diodlar	8541100009	225	360	450	495	495	1240	740
65.	O'ralgan va izolatsiyalangan simlar, o't oldirish svechalari uchun simlar to'plami, elektr o'tkazgichlar	8544111000, 8544300008, 8544499101, 8544499109, 8544499309, 8544499500, 8544609009	225	360	450	495	495	1240	740
66.	O'tirish uchun mebel	9401610000, 9401690000, 9401903000	225	360	450	495	495	1240	740
67.	O'yinchoqlar	9503001000, 9503003500, 9503007000, 9503009500	225	360	450	495	495	1240	740
68.	Gigiyena vositalari	9619008101	225	360	450	495	495	1240	740

\* Izoh: Eksportga yuk ortilgan joydan 3500 km dan ortiq masofadagi Rossiya Federatsiyasi hududlariga eksport amalga oshirilganda qat'iy belgilangan subsidiya miqdori keyingi har 500 km gacha bo'lgan masofaga refrijeratorli avtomobilda tashilganda 70 so'm/kg hamda boshqa avtomobillarda tashilganda 50 so'm/kg miqdorga oshirib hisoblanadi. Bunda, yo'l masofasini hisoblashda 50 km gacha bo'lgan chetlashishga yo'l qo'yilishi mumkin. Misol uchun, 550 km gacha bo'lgan masofa 500 km masofa sifatida hisobga olinadi.

Mahsulotni eksport qilishda tashish xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kompensatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizomga  
4-ILOVA

**Mahsulotlarni eksportga tashish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilishga taqdim etiladigan subsidiyalarning qat'iy miqdorlari (temir yo'l transportida tashilganda)**

T/r	Mahsulot nomi	Mahsulot TIF TN kodi	Afg'oniston	Rossiya Federatsiyasi	Belarus, Ukaraina, Moldova	Kavkaz davlatlari (Ozarbayjon, Armaniston, Gruzija)	Osiyo qit'asi	
							Yaqin Sharq va boshqa Osiyo davlatlari	C
<b>I. Oziq-ovqat mahsulotlari</b>								
<b>I.1. Boshqariladigan temperatura talab etiladigan oziq-ovqat mahsulotlari</b>								
1.	Tuxum, parranda go'shti va mahsulotlari	0407210000, 0207	115	439	706	360	233	
2.	Pomidorlar	0702000001 — 0702000009	115	439	706	360	233	

3.	Sarimsoq	0703200000	115	439	706	360	233
4.	Gulkaram	0704100000	115	439	706	360	233
5.	Salatlar (latuk, aysberg, radicho, oaklif, lollo-rossa va boshqalar)	0705	115	439	706	360	233
6.	Bodringlar	0707000501 — 0707000509	115	439	706	360	233
7.	Ko'katlar	0709400000, 0709700000, 0709991000, 0709999000	115	439	706	360	233
8.	Shirin qalampir ho'l yoki muzlatilgan	0709601000, 0710805100	115	439	706	360	233
9.	Achchiq qalampir	0709609900	115	439	706	360	233
10.	Muzlatilgan sabzavotlar	0710809500	115	439	706	360	233
11.	Limon	0805501000	115	439	706	360	233
12.	Uzum	0806101000, 0806109000	115	439	706	360	233
13.	Tarvuz	0807110000	115	439	706	360	233
14.	Qovun	0807190000	115	439	706	360	233
15.	Olma	0808108001 — 0808108004	115	439	706	360	233
16.	Nok	0808309000	115	439	706	360	233
17.	O'rik	0809100000	115	439	706	360	233
18.	Gilos	0809290000	115	439	706	360	233
19.	Nektarin	0809301000	115	439	706	360	233
20.	Shaftoli	0809309000	115	439	706	360	233
21.	Olxo'ri	0809400500	115	439	706	360	233
22.	Olcha	0809210000	115	439	706	360	233
23.	Xurmo	0810700000	115	439	706	360	233
24.	Anor	0810907500	115	439	706	360	233
25.	Muzlatilgan yoki konservalangan mevalar	0811, 0811907500, 0811908000, 0811909500, 0812902500	115	439	706	360	233
<b>I.2. Boshqariladigan temperaturada talab etilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari</b>							
26.	Kovul	0711907000	112	563	599	347	219
27.	Quritilgan sabzavotlar	0712909000	118	649	707	422	269
28.	Yong'oq	0802310000, 0802320000	109	581	635	372	231
29.	Bodom	0802111000, 0802119000, 0802121000, 0802129000	109	581	635	372	231
30.	Mayiz	0806203000, 0806209000	109	581	635	372	231
31.	Quritilgan mevalar	0813100000, 0813200000, 0813300000, 0813401000, 0813403000, 0813409500, 0813501500,	109	594	635	372	231

		0813501900, 0813509100, 0813509900						
32.	Quritilgan, maydalangan va yanchilgan qalampir	0904110000, 0904120000, 0904211000, 0904219000, 0904220000	120	594	647	380	241	
33.	Yeryong‘oq	1202, 1202410000, 1202420000	64	581	635	372	231	
	<b>Sanoat mahsulotlari</b>							
34.	Tabiiy uzum vinolari	2204101100, 2204219700, 2204219800, 2204299501, 2204299508, 2204299601, 2204299701, 2204299708, 2204299709, 2204299801, 2204299809, 2204309800	198	739	753	461	664	
35.	Konyak distillyati	2208208900	105	470	492	280	664	
36.	Tarkibida antibiotiklar bo‘lgan penitsillinlar, dori vositalari	3004100001,3004100006, 3004200001,3004200002	133	545	619	387	664	
37.	Gulqog‘ozlar va shunga o‘xshash devor qoplamalari	4814200000	116	694	685	430	664	
38.	Gazlama	5208 — 5212	133	562	691	299	664	
39.	To‘qima gilamlar	5702429000	130	751	795	365	664	
40.	Linoleum	5904100000	92	555	534	245	664	
41.	Trikotaj mato	60	118	764	889	374	653	
42.	Tikuv-trikotaj mahsulotlari	61 — 63	214	1,249	1,379	589	664	
43.	Suv o‘tkazmaydigan poyabzal	6401921000, 6401929000, 6401990000	214	1,356	1,353	589	664	
44.	Poyabzal	6403200000, 6403400000, 6403911600, 6403999100, 6403999600, 6404199000, 6404209000, 6405100000, 6405209100, 6405209900, 6405901000	214	1,356	1,353	589	664	
45.	Shlak paxta, mineral paxta va boshqalar	6806100008, 6806209000, 6806900000	185	1,355	853	542	636	
46.	Tosh yotqizish uchun plitalar	6907219001, 6907229003, 6907229009, 6907239003	85	425	350	219	646	

47.	Keramikadan yasalgan pardozlash buyumlari	6907409003, 6907409009	85	425	350	219	646
48.	Oshxona idishlari va boshqalar	6912001000, 6912002100, 6912002300, 6912002500, 6912002900, 6912005000, 6912008100, 6912008900, 6912009000	149	858	982	425	664
49.	Shisha tola	7019199009, 7019310000, 7019390009, 7019510000, 7019590000, 7019900009	146	1,355	1,353	589	636
50.	Shisha idishlar	7010901000, 7010904100, 7010904300, 7010904500, 7010905300, 7010907100, 7010907900	146	1,355	1,353	589	636
51.	Qalpoqlar yoki ventilatsiyali shkaflar	8414600000	132	1,109	1,082	414	538
52.	Kir yuvish mashinalari	8450120000	149	1,109	1,227	425	556
53.	Akkumulyatorlar	8507102003	85	609	586	212	528
54.	Transformatorlar	8504210000, 8504221000, 8504229000, 8504230000, 8504312900, 8504318009, 8504330000, 8504340000, 8504403009, 8504405500, 8504408200, 8504408800, 8504409000, 8504509500, 8504901800, 8504909900	118	1,053	1,049	365	528
55.	Chang yutgichlar	8508190001	133	995	948	373	545
56.	Taqs o't oldirish g'altaklari	8511400008	118	1,053	1,049	365	528
57.	Elektr uskunalari	8511500009	118	1,053	1,049	365	466
58.	Elektr yoritish va signalizatsiya uskunalari	8512200001, 8512200009	118	1,053	1,049	365	545
59.	Pechlar va kameralar	8514900000	118	1,053	1,049	365	528

60.	Elektr suv isitgichlar, mikroto'qinli pechlar, pechlar, elektr plitalar va h.k.	8516108000, 8516500000, 8516601010, 8516601090, 8516607000, 8516609000	118	1,053	1,049	365	556
61.	Ovozni qabul qilish va uzatish uchun apparatura, televizion aloqani qabul qilish uchun apparatura	8517620009, 8528722001	150	1,277	1,316	444	545
62.	Kommutatsiya uchun elektr apparatura	8535900000	98	1,053	1,049	365	528
63.	Pultlar, panellar, konsollar va boshqalar	8537109900, 8537209100	103	995	1,094	373	545
64.	Diodlar	8541100009	199	1,609	1,644	562	545
65.	O'ralgan va izolatsiyalangan simlar, o't oldirish svechalari uchun simlar to'plami, elektr o'tkazgichlar	8544111000, 8544300008, 8544499101, 8544499109, 8544499309, 8544499500, 8544609009	88	979	980	377	538
66.	O'tirish uchun mebel	9401610000, 9401690000, 9401903000	199	1,462	1,665	589	556
67.	O'yinchoqlar	9503001000, 9503003500, 9503007000, 9503009500	199	1,459	1,546	589	556
68.	Gigiyena vositalari	9619008101	170	1,554	1,408	542	528

Mahsulotni eksport qilishda tashish xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobidan kompensatsiya qilish tartibi to'g'risidagi **nizomga**  
5-ILOVA

**Mahsulotlarni eksportga tashish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilishga taqdim etiladigan subsidiyalarning qat'iy miqdorlari\***  
(havo transportida tashilganda)

T/r	Mahsulot nomi	Moskva	Novosibrsk	Dubay	Pekin	Shanxay	Tyanszin	Seul	London	3000 km gacha bo'lgan masofaga
										7200

\* Izoh: Qat'iy belgilangan subsidiya miqdori mahsulotlar charter reyslari yoki faqat yuk tashish uchun tashkil etilgan muntazam reyslar orqali tashilganda amal qiladi.

Mahsulotni eksport qilishda tashish xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobidan kompensatsiya qilish tartibi to'g'risidagi **nizomga**  
6-ILOVA

**Transport xarajatlari bo'yicha kompensatsiya berilgan eksport qiluvchilarning**



REYESTRI

T/r	Eksport qiluvchi nomi	Eksport shartnomasi (invoys)ning identifikatsiya raqami va/yoki vosita-chilik shartnomasi raqami va sanasi	Mahsulot nomi		Bojxona yuk deklaratsiyasi raqami va sanasi	Mahsulot uchun mavjudligi (bo'nak to'lovi, akkreditiv, konsignatsiya shartida)	Avtomobil/ temir yo'l transporti bosib o'tgan jami yo'l masofasi, km	Eksportga yuk ortish joyi/ stansiyasi/ aeroporti nomi (manzili, raqami yoki boshqa)	Eksportga ortilgan yukning so'nggi yetib borish joyi/ stansiyasi / aeroporti nomi	Mahsulot umumiy eksport qiymati (shartnomasi bo'yicha, transport xarajatini ayirgan holda), so'm
			nomi	TIF TN kodi						
1.										
2.										
3.										
...										

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020-y., 10/20/3257/1056-son)*